



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020-yil yanvar-may oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-may oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 011,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,0 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,1 %), moliyaviy xizmatlar (18,9 %), transport xizmatlari (17,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,5 %) ustunlikka ega.

### 2020-yil yanvar-may oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2020-yil  
yanvar-may

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020-yil yanvar-may oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajm, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>3 011,5</b>	<b>96,0</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	196,2	111,5
Moliyaviy xizmatlar	567,6	126,4
Transport xizmatlari	534,2	90,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari		
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	57,2	75,5
Savdo xizmatlari	996,0	95,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	71,3	78,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	121,9	99,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	55,3	80,7
Ijara xizmatlari	63,7	100,8
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	67,4	78,6
Shaxsiy xizmatlar	169,6	77,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	42,1	60,3
Boshqa xizmatlar	69,0	73,9

2020-yil  
yanvar-may

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (126,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (111,5 %), ijara xizmatlari (100,8 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-may oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 203,8 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-may oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



2020-yil  
yanvar-may

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*(dastlabki ma'lumotlar)*

2020-yil yanvar-may oyida o'tgan yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga moliyaviy xizmatlar (157,4 mlrd. so'mga), savdo xizmatlari (76,8 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi, transport xizmatlari esa (-7,5 mlrd. so'mga) kamaygan.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yilning yanvar-may oyida moliyaviy xizmatlari 182,9 mlrd. so'm, savdo xizmatlari 140,7 mlrd. so'm, transport xizmatlar 62,3 mlrd. so'mga oshgan.



2020-yil  
yanvar-may


**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020-yil yanvar-may oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (60,3 %), boshqa xizmatlar (73,9 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (75,5 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2020-yil yanvar-may oyida uning ulushi 33,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlar (18,9 %), transport xizmatlari (17,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,5 %) egallaydi.

2020-yil  
yanvar-may

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**





# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi

## Eng kam ulush

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar  
1,4 %

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar  
1,8 %

Yashash va ovqatlanish xizmatlari  
1,9 %

Ijara xizmatlari  
2,1 %

Kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash  
2,2 %

Boshqa xizmatlar  
2,3 %

## Eng katta ulush

Savdo xizmatlari  
33,1 %

Moliyaviy xizmatlar  
18,9 %

Transport xizmatlari  
17,7 %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari  
6,5 %

Shaxsiy xizmatlar  
5,6 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar  
4,1 %

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar  
2,4 %

2020-yil  
yanvar-may

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*(dastlabki ma'lumotlar)*


Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

## **2020-yil yanvar-may oyida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, %**

Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (91,2 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 8,4% ni tashkil qiladi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.






# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2020-yil yanvar-may oyida uning ulushi 76,7 % ni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-may oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,4 % ni egallaydi.

2020-yil  
yanvar-may

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi





# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

## 2020-yil yanvar-may oyida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, %

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (97,8 %) egallaydi.


Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 1,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,2 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.

**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi  
2020-yil yanvar-may oyi, %**



2020-yil  
yanvar-may

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*(dastlabki ma'lumotlar)*

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

## 2020-yil yanvar-may oyida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %



2020-yil yanvar-may oyida moliyaviy xizmatlar hajmi 567,6 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 126,4 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (89,1 %) tashkil etadi.

2020-yil  
yanvar-may

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yilning yanvar-may oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 57,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-may oyiga nisbatan o'sish sur'atlari 75,5 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, %**

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 100 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 84,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 15,5 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil  
yanvar-may

**Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi**




# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

*(dastlabki ma'lumotlar)*

## 2020-yil yanvar-may oyida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'm

2020-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 069,3 ming. so'mga teng bo'ldi. 2019-yil yanvar-may oyiga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 51,3 ming so'mga oshdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28

2020-yil  
yanvar-may

Namangan viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi